

TILSHUNOSLIKDA TRANSFORMATSIYA, KONVERSIYA VA INVERSIYANING BIR-BIRIDAN FARQI

Jabborova Sevinch Yoqubjon qizi

QarDU Filologiya fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)yo'nalishi
1-bosqich talabasi.

Yo'ldosheva Nilufar Ergashevna

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15467205>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda muhim bo'lmish transformatsiya, konversiya va inversiya tushunchalari hamda ularning farqlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Har uchala tushuncha til birliklarining shakl, vazifa yoki tartibini o'zgartirishga asoslangan bo'lsa-da, ular til tizimida turlicha vazifaga ega. Transformatsiya lingvistik hodisa bo'lib, gap yoki so'z tuzilishini o'zgartirish orqali yangi grammatik yoki semantik ma'no hosil qilish jarayonidir. Konversiya morfologik vositalarsiz so'z turkumining o'zgarishi natijasida yangi ma'no hosil bo'lishidir. Inversiya esa gap komponentlarining odatiy tartibining buzilishi orqali gap urg'usini o'zgartirish yoki stilistik ta'sir hosil qilish uchun qo'llaniladi. Ushbu maqolada uch tushunchaning ta'riflari keltiriladi, misollar asosida tahlil qilinib, ularning lingvistik xususiyatlari, o'zaro bog'liqligi va farqlari yoritiladi, shuningdek, har bir hodisaning sintaktik va semantik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilib, ularning til tizimidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Nazariy yondashuvlar hamda amaliy misollar orqali ushbu lingvistik hodisalarning mohiyatini kengroq ochib beriladi, o'zbek va boshqa tillardagi tadqiqotlari va namunalari o'rganiladi. Shu bilan birga, maqolada transformatsiya va inversiyaning asosan sintaktik darajada, konversiyaning esa morfologik-grammatik darajada yuz berishi, ularning o'zaro aloqador, biroq ajralib turuvchi jihatlaridan biri sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Transformatsiya, konversiya, inversiya, lingvistik o'zgarishlar, sintaktik transformatsiya, semantik transformatsiya, sintaktik inversiya.

Аннотация. В этой статье будут проанализированы важные в лингвистике понятия трансформации, преобразования и инверсии, а также их различия с научно-теоретической точки зрения. Хотя все три концепции основаны на изменении формы, функции или порядка языковых единиц, они выполняют разные задачи в языковой системе. Трансформация-это лингвистическое явление, процесс создания нового грамматического или семантического значения путем изменения структуры предложения или слова. С другой стороны, преобразование-это образование нового значения в результате изменения категории слова без морфологических средств.

Инверсия, с другой стороны, используется для изменения акцента предложения или создания стилистического эффекта за счет нарушения обычного порядка компонентов предложения. В данной статье даны определения трех понятий, проанализированы на примерах и освещены их лингвистические особенности, взаимосвязи и различия, а также рассмотрена их роль в системе языка с особым вниманием к синтаксическим и семантическим особенностям каждого явления. С помощью теоретических подходов и практических примеров более широко раскрывается сущность

этих языковых явлений, изучаются их исследования и примеры на узбекском и других языках.

Однако в статье показано, что трансформация и инверсия происходят в основном на синтаксическом уровне, тогда как преобразование происходит на морфолого-грамматическом уровне как один из их взаимосвязанных, но отличительных аспектов.

Ключевые слова: трансформация, преобразование, инверсия, языковые изменения, синтаксическая трансформация, семантическая трансформация, синтаксическая инверсия.

Abstract. This article analyzes the concepts of transformation, conversion and inversion, which are important in linguistics, and their differences scientifically-theoretically. While all three concepts are based on changing the form, task, or order of language units, they have a different function within the language system. Transformation is a linguistic phenomenon, the process of generating a new grammatical or semantic meaning by changing the structure of a sentence or word. In contrast, conversion is the formation of a new meaning as a result of a change in word order without morphological means. Inversion, on the other hand, is applied to change the stress of a sentence through a violation of the usual order of the components of a sentence, or to produce a stylistic effect. This article will give definitions of the three concepts, analyze on the basis of examples, highlight their linguistic features, interrelationships and differences, and also consider their role in the language system, paying special attention to the syntactic and semantic features of each phenomenon. Through theoretical approaches and practical examples, the essence of these linguistic phenomena is revealed more broadly, studies and samples of Uzbek and other languages are studied. At the same time, the article points out that transformation and inversion occur mainly at the syntactic level, and conversion occurs at the morphological-grammatical level, as one of their interrelated but distinguishing aspects.

Keywords: transformation, conversion, inversion, linguistic changes, syntactic transformation, semantic transformation, syntactic inversion.

KIRISH

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda til birliklarining shakliy va mazmuniy o'zgarishlari, jumladan, ularning sintaktik va semantik tuzilishidagi transformatsiyalar dolzarb tadqiqot mavzularidan biri hisoblanadi. Ushbu o'zgarishlar tilning doimiy rivojlanishini va jamiyat ehtiyojlariga moslashuvchanligini ko'rsatadi. Transformatsiya, konversiya va inversiya kabi lingvistik hodisalar turli tillarda nutqiy faollikni ta'minlash, uslubiy imkoniyatlarni kengaytirish va ma'no ifodasining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali so'zlovchilar o'z fikrlarini aniq, ta'sirchan va estetik jihatdan go'zal shaklda ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Transformatsiya deganda, gap tuzilishining o'zgarishi orqali yangi grammatik ma'no hosil bo'lishi tushuniladi. Bunda gapning sintaktik qurilishi o'zgaradi, lekin asosiy ma'no saqlanib qoladi. Konversiya bir so'z turkumidan ikkinchi so'z turkumiga o'tish jarayonidir, bunda so'zning shakli o'zgarmaydi, faqat vazifasi o'zgaradi. Misol uchun, ot fe'lga aylanadi yoki aksincha. Inversiya esa sintaktik birliklarning tartibini o'zgartirish orqali urg'uni, uslubiy ta'sirni yoki ma'no ifodasini o'zgartirish hodisasidir. Ushbu jarayonlarning har biri til tizimidagi

o'ziga xos funksiyaga ega bo'lib, ularning tadqiqi sintaksis va semantika o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga yordam beradi.

Bu jarayonlar nafaqat nazariy jihatdan qiziqarli, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Shu sababli, maqolamizda transformatsiya, konversiya va inversiya tushunchalarining lingvistik mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, ularning o'zbek va boshqa tillardagi namoyon bo'lish xususiyatlari misollar orqali tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Transformatsiya nazariyasining lingvistik xususiyatlari va uni tadqiq qilish jahon olimlari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Xususan, Z.Xarris, N.Xomskiy, R.B.Liz, E.V.Severyan, L.S.Barxudarov, Apresyan, K.Shaumyan, P.À.Soboleva, V.S.Xrakovskiy, V.N.Koduxov, Y.V.Paducheva, Yu.S.Stepanov, V.G.Àdmoni, L.N.Zasorina, Y.S.Kubryakova, hamda S.Samarenkinalarning tadqiqotlarida ushbu masalaga ma'lum darajada e'tibor qaratilgan.

Transformatsiya nazariyasi ilk bor Noam Xomskiy tomonidan generativ grammatika doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, unda gap tuzilishining o'zgarish jarayonlari tahlil qilingan. Xomskiy transformatsiyani lingvistik birliklarning bir shakldan boshqasiga o'tishi sifatida tushuntiradi va uni sintaktik tuzilmalarning asosiy elementi deb hisoblaydi. Ushbu nazariya keyinchalik ko'plab tilshunoslar tomonidan rivojlantirildi. Xususan, Xomskiyning nazariyasiga ko'ra, transformatsiyalar tilning asosiy grammatik qoidalari orqali so'zlar va gaplar o'rtasidagi o'zgarishlardir. Bu nazariyada tilning o'zgarishi faqat sintaksis va morfologik o'zgarishlarga qaratilgan bo'lib, ma'no va tilning boshqa aspektlariga kamroq e'tibor qaratilgan. Shunga qaramay, o'zbek tilshunosligida bu nazariyani kengaytirish va o'zlashtirish jarayonida tilning semantik va pragmatik o'zgarishlari ham hisobga olinadi.

Konversiya hodisasi morfologik va semantik o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, u turli tillarda so'z turkumlarining o'zgarishini ifodalaydi. Masalan, ingliz tilida fe'ling otga aylanishi (to run – a run) yoki o'zbek tilida sifatning otga aylanishi (yangi-yangilik). Bu jarayon O. Jespersen va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Inversiya tushunchasi esa, asosan, sintaktik o'zgarishlarga taalluqli bo'lib, gapning odatiy tartibining buzilishi orqali stilistik ta'sir yaratadi. Inversiya tadqiqotlari A. M. Peshkovskiy va rus tilshunosligida keng o'rganilgan bo'lib, bu uslubiy hodisa adabiy matnlarda keng qo'llaniladi.

O'zbek tilshunosligida ushbu lingvistik hodisalar S. Sirojiddinov, Sh. Rahmatullaev, A. Madvaliyev, N. Mahmudov, G. Abdurahmonov, A. Jo'rayev kabi olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Transformatsiya masalasi S. Sirojiddinov va Sh. Rahmatullaev tomonidan sintaktik jihatdan tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida o'zbek tilida gaplarning aktiv va passiv shakllarga o'tishi, murakkab gaplarning sodda gaplarga aylanishi kabi transformatsion jarayonlar o'rganilgan. Sh. Rahmatullayev sintaktik transformatsiyaga quyidagicha izoh beradi: "Sintaktik bo'lak vazifasida leksemashakl va birikmashakldan tashqarigapshakl ham kelishi mumkin.

Buning uchun gapshakl tarkibida ma'lum grammatik o'zgarish amalga oshiriladi.

Gapshakl tarkibida amalga oshiriladigan bunday o'zgarishlarga transformatsiya deyiladi (lot. transformatio – aylanish, boshqa shaklga o'tkazish)".[1] Professor Azim Hojiyev transformatsiya tushunchasini quyidagicha izohlaydi: "Transformatsiya (lot. transformatio – qayta tuzish). Asosiy sintaktik strukturani til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, ikkinchi tur sintaktik struktura hosil qilish.

Masalan, aniq konstruksiyaning majhul konstruksiyaga aylantirilishi (transformatsiyalanishi): Qizcha she'rni o'qidi. – She'r qizcha tomonidan o'qildi kabi.[2]

Konversiya hodisasi A. Madvaliyev va N. Mahmudov tomonidan o'zbek tilining so'z yasalishi va morfologik xususiyatlari doirasida tadqiq etilgan. Jumladan, sifatlarning otga aylanishi (yomon → yomonlik), fe'llarning otga aylanishi (kelmoq → kelish), otlarning fe'lga aylanishi (oydin → oydinlashmoq) kabi jarayonlar atroflicha o'rganilgan. Inversiya masalasi esa G. Abdurahmonov tomonidan o'zbek tili stilistikasi va sintaktik strukturalari doirasida tahlil qilingan. U adabiy matnlarda so'z tartibining buzilishi (inversiya) orqali ekspressivlik va emotsionallik hosil qilish usullarini tadqiq etgan.

MUHOKAMA

Transformatsiya, konversiya va inversiya tushunchalari lingvistika, tarjimashunoslik va kompyuter lingvistikasi sohalarida keng qo'llaniladi. Transformatsiya – til birliklarining shakl yoki tuzilishini o'zgartirish orqali yangi ma'no hosil qilish jarayoni. Bu sintaktik, morfologik yoki semantik darajada ro'y berishi mumkin. Masalan, Men kitob o'qiyman. (aniq nisbat) Kitob men tomonimdan o'qiladi. (majhul nisbat) Konversiya so'z turkumlari o'rtasidagi o'zgarish jarayonini ifodalaydi, bunda so'zning shakli o'zgarishdan boshqa so'z turkumiga aylanadi. Yozish (fe'l) → yozish (ot) → "Mening yozishim chiroyli." Inversiya esa so'z tartibini o'zgartirish orqali ifoda uslubini yoki gap urg'usini o'zgartirishga xizmat qiladi. Misol uchun, Men bu kitobni juda yoqtirdim. (oddiy so'z tartibi) Juda yoqtirdim men bu kitobni. (inversiya) O'zbek tilida kesim har doim gapning oxirida keladi (mustasno holatdan tashqari). Bu qoidaning mustasno holati aynan inversiya hodisasidir.

Garchi kesim gap oxirida kelmasa-da nazmga o'zgacha ko'rk bag'ishlaydi:

Olam oqqanida sovuqqa to'lib,

Yugurdim. Shavkatimdan qizidi badan.

Yugurdim yurakning jahdiga ko'nib,

Oyog'imga to'kdi maysalar shabnam. (Usmon Azim "Mangu umid") [3]

Nazariy nuqtayi nazardan, bu uch tushuncha bir-biriga yaqin bo'lsa ham, ularning qo'llanilish doirasi va lingvistik xususiyatlari bilan farqlanadi. Transformatsiya yanada umumiy jarayon bo'lib, konversiya va inversiyani ham o'z ichiga olishi mumkin. Inversiya odatda sintaktik o'zgarishlarga asoslangan bo'lsa, konversiya grammatik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Amaliyotda ushbu tushunchalar matn tahlili, tarjima jarayoni va tilshunoslik tadqiqotlarida keng qo'llaniladi. Masalan, ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima jarayonida transformatsiya va inversiya usuli tez-tez qo'llanadi. Quyida O'. Genrining qalamiga mansub "The last leaf" asari va uni o'zbek tiliga tarjima qilishda foydalanilgan bir nechta transformatsiyalarni ko'rib chiqamiz. (Ingliz tilidan Ma'ruf Abdullayev tarjimasi) [4] Misol: "She has a very little chance to survive. Let us say, it is nearly impossible," he said as he was playing with his clinical thermometer. - Uning tuzalib ketishini men, aytaylik, o'ndan bir ehtimol degan bo'lardim, --dedi u termometridagi simobni silkitarkan. Bu yerda "a very little chance" (juda kichik imkoniyat) jumlasini "o'ndan bir" iborasi orqali ifodalangan. Tarjimon playing ya'ni "o'ynamoq" so'zini ham "silkitmoq" so'zi bilan almashtirgan chunki bu o'rinda silkitmoq so'zi kontekstga munosibroq bo'lgan va tabiiyroq ko'ringan.

Ingliz tilida "Never have I seen such a view" shaklida kelgan gap o'zbek tilida "Men hech qachon bunday manzarani ko'rmaganman" deb oddiy so'z tartibida tarjima qilinishi mumkin.[5] Bu inversiyaning sintaktik o'zgarishlarga ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Konversiya esa yangi so'z yasash usuli bo'lib, bunda bir grammatik turkumdagi so'z boshqa grammatik turkumga o'tadi. Yangi so'z avvalgisidan morfologik, sintaktik xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Masalan, Yomonga yondoshsang, balosi yuqar. Konversiyani quyidagi ko'rinishlari mavjud: 1) Substantivatsiya- konversiya yo'li bilan ot hosil bo'lishi; 2) Adyektivatsiya- sifat hosil bo'lishi; 3) Adverbializatsiya — ravish hosil bo'lishi. Rus tilida konversiyaning sifatdan ot hosil bo'lish hodisasi ko'p uchraydi. Masalan, портной, крепостной, взрослый, заведующий, часовой kabi. Nemis tilida ot dan fe'l yasash hollarini ko'ramiz: Pfeffern-garim dori, pfeffern-garmdori sepish, haus-uy, hausen-yashamoq. Ingliz tilida fe'ldan ot yasash, yoki, aksincha, ot dan fe'l yasash ko'p uchraydi. Look-qaramoq; a look- nazar; stone-tosh; to stone-tosh otmoq. Fransuz tilida, poste-pochta, poste-pochtadan jo'natmoq. krepostnoy, chasavoy kabi. Nemis tilida ot dan fe'l yasash hollarini ko'ramiz: Pfeffern-garimdoriy, pfeffern-garmdori sepish, haus-uy, hausen-yashamoq. Ingliz tilida fe'ldan ot yasash, yoki aksincha ot dan fe'l yasash ko'p uchraydi. Look-qaramoq- a look- nazar; stone-tosh; stone-tosh otmoq. Fransuz tilida, poste-pochta, poste-pochtadan jo'natmoq.[6]

Inversiya deb gap bo'laklarining o'rin almashinishi yoki gap bo'laklari joylashish tartibining ma'lum bir maqsad bilan o'zgarishi hodisasiga aytiladi. Inversiya og'zaki nutqqa xos xususiyat. Badiiy matnda qahramonlar nutqini jonli nutqqa yaqinlashtirishda, ularning tilini individuallashtirishda mazkur usuldan foydalaniladi: Bolangni olib ketsang-chi! Ko'rmayotipsanmi, bu yerda odamlar ishlab o'tiripti! (A.Qahhor) – Tashla u toshni! – deb do'q qilib qoldi onam. Ko'chaning o'rtasidan haydatib ketdim aravani. – Bilasizmi, nimaga ergashdim sizga? – deb qolsa bo'ladimi shunda. (Sh.Xolmirzayev)[7]

NATIJA

Transformatsiya, konversiya va inversiya lingvistik tizimdagi muhim hodisalardan bo'lib, ularning tadqiqi tilshunoslikning turli yo'nalishlarida keng qo'llaniladi. Transformatsiya jarayonlari gap va so'z shakllarining o'zgarishiga asoslangan bo'lib, sintaktik va semantik jihatdan muhim o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Konversiya esa so'z turkumlarining hech qanday morfologik o'zgarishlarsiz boshqa turkumga o'tishini ta'minlaydi va leksik tizimning dinamik xususiyatlarini ifodalaydi. Inversiya esa so'z tartibini o'zgartirish orqali sintaktik va stilistik effektlar yaratadi. U tinglovchining diqqatini jalb qilish uchun gapning bir bo'lagini boshqa bo'laklardan g'ayrioddiy joyga qo'yish orqali namoyon bo'ladi.

Maqolada ushbu lingvistik hodisalarning o'zbek tilidagi namunalari, shuningdek, ingliz, rus, nemis va fransuz tillaridagi o'xshash jarayonlar bilan qiyosiy tahlili o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, transformatsiya, konversiya va inversiya lingvistik imkoniyatlarni kengaytirishda, tarjima jarayonlarini soddalashtirishda va matn tahlilini chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, transformatsiya til tizimining moslashuvchanligi va ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, konversiya esa so'z yasash jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Inversiya nutqning emotsional va stilistik jihatdan ifodali bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu farqlar tarjima jarayonlarida, lingvistik tahlil va matn yaratish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Transformatsiya, konversiya va inversiya lingvistik hodisalarning o'ziga xos farqlari ularning sintaktik, morfologik va semantik jihatlarida namoyon bo'ladi.

Transformatsiya til birliklarining grammatik tuzilishini qayta shakllantiradi, bunda so'zlar yoki gap qismlarining tartibi va tuzilishi o'zgarishi mumkin, ammo umumiy ma'no va sintaktik bog'liqlik saqlanadi. Bu jarayon, asosan, tarjima va matnni qayta ishlashda qo'llanilib, sintaktik moslashuv va semantik moslikni ta'minlashga yordam beradi. Konversiya so'z turkumlarining hech qanday morfologik o'zgarishsiz boshqa turkumga o'tish jarayoni bo'lib, bu hodisa so'z yasallish tizimining dinamik va fleksibil xususiyatlarini ko'rsatadi. Konversiya natijasida so'z yangi kontekstda qo'llanilib, unga yangi grammatik vazifa yuklanadi. Ushbu jarayon lug'at tarkibining kengayishi va yangi so'z shakllarining paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Inversiya esa sintaktik birliklarning odatiy tartibini o'zgartirish orqali gap tuzilishiga va matnning stilistik ifodasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon, ayniqsa, poetik nutq, badiiy matnlar va emotsional ifodalarda keng qo'llaniladi. Inversiya orqali matn yoki nutqning urg'usi, ohangi va ta'sirchanligi oshiriladi, bu esa kommunikativ maqsadlarni yanada samarali ifodalash imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu uch lingvistik hodisa o'zaro bog'liq bo'lsa-da, har biri o'ziga xos vazifa va lingvistik xususiyatlarga ega. Transformatsiya til tizimini qayta shakllantirishda, konversiya esa so'z yasallish jarayonlarida asosiy rol o'ynaydi. Inversiya esa sintaktik tuzilishga ta'sir qilib, matnning ifodalilik darajasini oshiradi. Ushbu hodisalarni o'rganish lingvistik tahlil, tarjima amaliyoti va sun'iy intellekt asosida ishlov berish jarayonlari uchun muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent.: 2010. - B. 351.
2. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. - Toshkent.: 1985. - B. 94.
3. Abdurayimova Y. O'zbek she'riyatida inversiya hodisasi. E-Conference Series. - 2023. - B. 258.
4. M. Abdullayev tarjimasi "So'nggi yaproq". "Sharq yulduzi" jurnali. 2011y, 4-son.
5. Azimova S, Obidova S. Lingvistikada transformatsiya tushunchasi transformatsiyalarning tarjimada qo'zanilish turlari. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 2024-yil may, 5-son.
6. I. Yo'ldoshev, O'. Sharipova. Tilshunoslik asoslari. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2007. - 131 b.
7. Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi [Matn]: o'quv qo'llanma. - Toshkent: "ISHONCHLI HAMKOR", 2021. - 121 b.